XALQ DEPUTATLARI G'UZOR TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 3 - avgust VI-53-75-4-56-K/22 G‘uzor tuman hokimligi

G‘uzor tumanida norma ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyoti holati yuzasidan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5415-son Farmoniga asosan tuman (shahar) adliya bo‘limlari boshliqlari har chorakda tegishlicha tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashlariga tuman (shahar) darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyoti holati bo‘yicha axborot taqdim etishi belgilangan.

Ushbu ko‘rsatmalardan kelib chiqqan holda G‘uzor tuman adliya bo‘limi tomonidan 2022-yilning 2-choragi davomida G‘uzor tumanida norma ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyoti holati o‘rganilgan.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, yuridik-texnik rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnoma talablariga ko‘ra, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy tusdagi qarorlarni qabul qilishdan oldin loyihani tegishliligi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari hamda tuman (shahar) adliya bo‘limlariga huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim qilishi shart.

Mahalliy davlat hokimiyati organining yuridik xizmati xodimi loyihalarni tegishli hududiy adliya organiga huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun

kiritilishini ta’minlaydi.

Shunga ko‘ra, G‘uzor tuman adliya bo‘limi tomonidan 2022-yil II-chorak davomida tumandagi davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyoti holati bo‘yicha quyida ishlar amalga oshirilgan.

Xususan, o‘tgan davr mobaynida Xalq deputatlari tuman Kengashining “Xalq deputatlari G‘uzor tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi,

G‘uzor tuman hokimligining “G‘uzor tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi va “G‘uzor tumanida dam olish kunlarida yarmarkalarni tashkil etishni samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari loyihalari ekspetizadan o‘tkazilgan.

Tuman hokimligi tomonidan qabul qilingan 2022-yilning aprel, may va iyun oylari davomida qabul qilingan qarorlar va farmoyishlar monitoringdan o‘tkazilganda ularni qabul qilishda ayrim hatolikka yo‘l qo‘yilganligi aniqlangan.

G‘uzor tuman hokimligining ayrim qarorlarini chiqarilishida tegishli tashkilotlar bilan “E-qaror” elektron tizimi orqali kelishish tartiblariga rioya qilinmayapti.

Bo‘lim tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-sonli Qarorida belgilangan talablarga rioya etilish ahvoli yuzasidan monitoring o‘tkazilgan.

G‘uzor tuman Adliya bo‘limi tomonidan 2022 yil I yarim yilligida 133 ta tashkilotlarda huquqni qo‘llash amaliyoti va inson huquqlarini himoya qilish yuzasidan o‘rganish, tahlil va monitoringlar o‘tkazilib, 3971 ta qonunbuzilishi holatlari aniqlangan va aniqlangan qonun buzilishi holati bo‘yicha jami 175 ta taqdimnoma kiritilgan, kiritilgan taqdimnomalarning ko‘rib chiqilishi natijalariga ko‘ra 25 nafar ma’sul-mansabdor shaxslar intizomiy javobgarlikka tortilgan, qonun talablariga zid ravishda qabul qilingan 823 ta qaror va boshqa hujjatlar bekor qilingan, 790,0 mln. so‘mlik pul mablag‘lari jismoniy va yuridik shaxslar foydasiga undirib berilgan. Ma’muriy bayonnomalar va ma’muriy takliflar rasmiylashtirilib, natijasiga ko‘ra 40 nafar ma’sul-mansabdor shaxslar ma’muriy

javobgarlikka tortilgan.

Bo‘lim tomonidan qonunbuzilish holatlarini oldini olish maqsadida 328 ta ogohnomalar chiqarilgan. Fuqarolarni va yuridik shaxslarni qonuniy manfaatlarini ko‘zlab, xususan oylik ish haqlarini va qarzlarni undirishni so‘rab, fuqarolik ishlari bo‘yicha G‘uzor tumanlararo sudiga, Qarshi tumanlararo ma’muriy sudiga hamda G‘uzor tumanlararo iqtisodiy sudiga 185 ta ariza va da’vo arizalar kiritilib, barchasi sud tomonidan qanoatlantirilgan.

Bo‘lim tomonidan inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, o‘z vakolatlari doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqish sohasidagi 379 nafar fuqaroning murojaatlardan 372 tasi qonun doirasida ko‘rib chiqilib, 348 tasi qanoatlantirilgan va ularning buzilgan huquqlari tiklangan bo‘lsa, 24 tasiga qonun doirasida huquqiy tushuntirishlar berilgan, 2 tasi tegishli tartibda taaluqliligiga ko‘ra ko‘rib chiqishlik uchun yuborilgan, 5 ta murojaat qoldiq sifatida keyingi chorakka o‘tgan.

2022 yil I yarim yilligida hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tumandagi 25 ta MFYlarda sayyor qabullar o‘tkazilib, natijalari ommaviy axborot vositalarida keng yoritilgan.

Bo‘lim tomonidan o‘tgan davrda qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan 19 ta takliflar berilgan, yangi qabul qilingan 591 ta qonun hujjatlari davlat organlari va tashkilotlariga yetkazilgan.

Shuningdek, Adliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”ga asosan bir qator huquqiy targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilgan.

Xususan, bo‘lim tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining G‘uzor tumanidagi Xalq qabulxonasi, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, sudlar va boshqa bir qator hamkor tashkilotlar bilan birgalikda 1095 marta yangi qabul qilinayotgan qonun, farmon va qarorlarning mazmun-mohiyatlari yuzasidan huquqiy targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilgan.

Kelgusida ham bo‘lim tomonidan kelgusida ham norma ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyoti sohalarida tadbirlar davom ettirib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PF–5415-son “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tuman Adliya bo‘limi boshlig‘ining

axborotini tinglanib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari G‘uzor tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PF-5415-sonli “Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tuman Adliya bo‘limi boshlig‘i M.Salimovning 2022-yil II-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat organlari va tashkilotlardagi ijrochilarga yangidan qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini muntazam yetkazib borish;

- Davlat organlari va tashkilotlarining huquqiy ishlarning holatini monitoring qilish va barqarorligi hamda bir xilligini ta’minlash bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

-Tuman hokimining va xalq deputatlari Kengashining qarorlarini qonun hujjatlariga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga muvofiqligi nuqtayi nazaridan huquqiy belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tkazish;

- Tuman Adliya bo‘limi tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijalari haqida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borish vazifalari topshirilsin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (K.Ismoilov)ga, Kengash tarkibida tashkil etilgan doimiy komissiya a’zolari uchun “Adliya-deputatga ko‘makdosh” loyihasi doirasida reja asosida seminar tashkil etish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-xuquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (G‘.Baraqov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **B.Suyunov**